



Qo'qon DPI

**ILMIY
XABARLAR**

№ 3/2024

**Qo‘qon DPI.
Ilmiy xabarlar**

**Кокандский ГПИ.
Научный вестник**

№3/2024

<p>УЎК 5/9(08) КБК 72я5 Қ 99</p>	<p>Bosh muharrir: Qo‘qon davlat pedagogika instituti rektori D.Sh.Xodjayeva Mas‘ul muharrirlar: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor N.S.Jurayev Xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektor N.A.Kadirova Mas‘ul muharrir yordamchisi: Ilmiy-tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i D.O‘rinboyev Nashr uchun mas‘ul: O.Y.To‘xtasinova- filologiya fanlari nomzodi, dotsent</p>
<p>MUASSIS: Qo‘qon davlat pedagogika instituti</p> <p align="center">Qo‘qon DPI. ИЛМИЙ ХАВАРЛАР- НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. Кокандский ГПИ. Jurnal bir yilda to‘rt marta chop etiladi.</p> <p>O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiya agentligida 2020-yil 9-iyulda 1085 raqam bilan ro‘yxatga olingan.</p> <p>Jurnaldan maqola ko‘chirib bosilganda, manba ko‘rsatilishi shart.</p> <p>Bosishga ruxsat etildi: 2024-yil 29-iyun Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8 Ofset bosma, Ofset qog‘ozi. Adadi: 100 nusxa Buyurma №250 Muqova dizayni va original maket Qo‘qon DPI tahririyat-nashriyot bo‘limida tayyorlangan. “Poliraf Super Servis” MCHJ bosxonasida chop etildi. Manzil: Farg‘ona shahar, Aviasozlar ko‘chasi 2-uy.</p> <p>“Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar” ilmiy jurnali OAK Rayosatining 2021-yil 31- martdagi qarori bilan OAK ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kimyo, biologiya, filologiya, tarix hamda 2023-yil 5-maydagi №337/6 sonli Rayosat qarori bilan Pedagogika fan tarmoqlari bo‘yicha milliy nashrlar sifatida kiritilgan.</p> <p>Tahririyat manzili: 150700, Qo‘qon shahar, Turon ko‘chasi, 23-uy. Tel.: (0373) 542-38-38. Cайт: www.kspi.uz journal.kspi.uz ISBN: 978-9943-7182-7-2 “CLASSIC” nashriyoti 2024</p>	<p align="center">TABIIY FANLAR</p> <p>I.I.Гибадуллина, кандидат биологических наук, (РФ) Sh.S.Nomozov, texnika fanlari doktori, professor, akademik (O‘ZB) V.U.Xo‘jayev, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) I.R.Asqarov, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) A.A.Ibragimov, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) S.F.Aripova, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) Sh.V.Abdullayev, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) B.Yo.Abduganiyev, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) A.E.Kuchboyev, biologiya fanlari doktori, professor (O‘ZB) M.T.Isag‘aliyev, biologiya fanlari doktori, professor (O‘ZB) V.Yu.Isaqov, biologiya fanlari doktori, professor (O‘ZB) T.O.Turginov, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB) A.M.Gapparov, kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB) I.I.Oxunov, kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (O‘ZB) O.A.Turdiboyev, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB) G‘.M.Ochilov, kimyo fanlari nomzodi, professor (O‘ZB) B.No‘monov, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB) M.Madumarov, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB)</p> <p align="center">FILOLOGIYA FANLAR</p> <p>Huseyin Baydemir filologiya fanlari doktori, professor, (TR) И.А.Киселёва, доктор филологических наук, профессор (РФ) В.В.Борисова, доктор филологических наук, профессор (РФ) К.А.Поташова, кандидат филологических наук, доцент (РФ) Э.Р.Ибрагимова, кандидат филологических наук, доцент (РФ) S.Muhamedova, filologiya fanlari doktori, professor (O‘ZB) G.Israilov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (O‘ZB)</p> <p align="center">IJTIMOIIY FANLAR</p> <p>Л.Г.Насырова, кандидат исторических наук, доцент (РФ) З.В.Галлямова, кандидат исторических наук, доцент (РФ) D.N.Abdullayev, tarix fanlari doktori (DSc), dotsent (O‘ZB) M.Rahimov, tarix fanlari doktori (DSc), dotsent (O‘ZB)</p> <p align="center">PEDAGOGIKA FANLAR</p> <p>Р.Ф.Ахтариева, кандидат педагогических наук, доцент (РФ) Н.Н.Масленникова, кандидат педагогических наук, доцент (РФ) Л.А.Максимова, кандидат педагогических наук, доцент (РФ) X.I.Ibragimov, pedagogika fanlari doktori, professor, akademik (O‘ZB) B.X.Xodjayev, pedagogika fanlari doktori, professor (O‘ZB) B.S.Abdullayeva, pedagogika fanlari doktori, professor (O‘ZB) N.A.Muslimov, pedagogika fanlari doktori, professor (O‘ZB) N.M.Egamberdiyeva, pedagogika fanlari doktori, professor (O‘ZB)</p>

N.Sh.Azimov, I.L.Ahmadjonov, M.G‘.Sulaymonova.....	
Lipidli ekstrakt unumining ekstraksiya usuli va sharoitlariga bog‘liqligi	
N.Sh.Azimov.....	238
<i>Physalis angulata</i> o‘simligining yog‘ kislotalar tarkibini o‘rganish	
I.L.Xikmatullayev.....	243
<i>Glycina hispida max</i> urug‘larining unishiga har xil haroratning ta’siri	
X.G‘.Axmedov, A.J.Jumaniyazov.....	249
Magnetit Fe₃O₄ nanozarrachalarini kiritish bilan faollantirilgan ko‘mirning teksturaviy va adsorbsion xususiyatlarini o‘rganish	
G‘.M.Ochilov, Sh.M.Xoshimov, D.M.Xaydarov, M.M.Mexmonov, K.A.Xoliqov...	256
Acorus calamus l ning xalq tabobatidagi ahamiyatini tahliliy o‘rganish	
G.Mo‘minova.....	264

IJTIMOIY FANLAR

Syemashko nomidagi fiziotyterapiya va kurortologiya ilmiy tekshirish institutining dastlabki faoliyati tarixidan.	
R.M.Axmedova.....	268
Turkistonda davlat ahamiyatga va mahalliy ahamiyatga molik bo‘lgan kurortlar, hamda ulardagi ayrim muammolar tarixidan.	
R.M.Axmedova, B.U.Aminov.....	273
Davlat boshqaruvi va rahbarlik masalasiga oid yondashuvlar.	
A.Yuldashev	278
Namangan uezdi boshqarmasi boshlig‘ini fondi - paxtachilik tarixiga oid hujjatli manba.	
A.T.Mirzayev	287
O‘zbekiston SSR da xalq tabobatiga munosabat	
Q.M.Najmiddinov.....	292
1918-1939 yillarda xalqaro munosabatlar. Yangi urush ostonasi.	
A.Q.Yusupov, X.Sh.Xoshimov.....	298
O‘zbekistonda profilaktika inspektorlarini tayyorlashda yangicha yondoshuv	
M.M.Temirova.....	305

FILOLOGIYA

Epideyktik nutq va uning janrlari tadqiqi masalasi.	
D.Sh.Xodjayeva	312
Navoiy lirikasida ta’limiy-axloqiy mavzudagi g‘azallarning o‘rni.	
N.S.G‘ulomova.....	317
Tilshunoslikda lisoniy belgi tushunchasi.	
N.B.Maxmudova	325
Ingliz va o‘zbek tillarida qurilishga oid atamalarning monoleksemik va polileksemik xususiyatlari.	
O.Q.Sobirov	331
Kognitiv tilshunoslik fan sifatida o‘rganilish tarixi.	
M.G‘.Artikova	338
Navoiy g‘azallarida sinonimlik xususiyatiga ega bo‘lgan so‘zlarni grammatik tasniflash.	
N.S.G‘ulomova.....	342
Sifat va uning ma’no guruhlari. Rang-tus bildiruvchi sifatlarning undagi o‘rni	
M.M.Xrojiddinova	350

Badiiy dialogda til shaxsining lingvokognitiv va lingvokulturologik pag‘onalari.	
D.M.Xamdamova	354
Ayol va erkak nutqidagi gender farqlanish.	
V.V.Karimova	358
O‘zbek tilida rang-tus ifodalovchi birliklar assotsiativ maydonining tuzilishi va tarkibi.	
R.Ubaydullayeva	362
Dialecticisms as a source of literary language enrichment (in the case of Uzbek and English languages)	
D.Sh.Xodjayeva, E.D.Khusanov.....	368
Azimhoja Eshon hikmatlarining mundarijasi va strofikasi	
M.M.Jo‘rayev.....	374
So‘fi Ollohyor g‘azallarining tasavvufiy jihatlari. “sabot ul-ojizin” ning axloqiy maqomlari	
M.M.Saidakbarova.....	383
Hofiz Xorazmiy qasidaları va ularning turkiy qasidachilikda tutgan o‘rni	
B.Abdurahmonova, O.Abdurahmovova.....	390
“Devoni foniy”ning eron nashri xususida	
M.Djurayev.....	396
The importance of realia’s in translation	
S.Ne‘matova.....	403
Hikoyadagi so‘zlar jilosi	
M.Z.Muydinov.....	407
“Rohati dil” dostonidagi hikoyatlarning o‘ziga xosligi	
H.G‘Abduxaliqova.....	413
Jadidchilik harakati va uning ijtimoiy-ma’naviy mohiyati	
M.Qodirova.....	421
Софокл ва унинг “шоҳ эдип”и таржимаси хусусида	
Б. Ҳасанова.....	427
Alisher Navoiy “nazm ul-javohir”i tasviriy vositalarining struktur o‘ziga xosliklari	
D.Zohidova, Sh.Khujaeva.....	433
Буалонинг “шеърый санъат”и қоидалари фурқат ғазалиётида	
М.Сиддиқов.....	441
Мақоллар – paremik birlik sifatida	
O.U.Xolmatova.....	449
O‘zbek tilida taqlid so‘zlarning semantik-struktur xususiyatlari	
M.Sh.Sharipova.....	457
Gender features in fiction literature: a reflection of society	
Sh.Sadikova.....	465
O‘zbek tilshunosligida topishmoqlarning o‘rganilishi	
N.T.Mahmudova.....	469
Birikma fe’llarni ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilish muammolari	
J.I.G‘ulomov.....	473
Шайх Санъон ҳақидаги қиссасининг драматик варианты	
Ш.М.Эргашев.....	478
Nazmiy matnlarda muallif munosabatining ifodalanishi	
N.T.Zaylobova.....	487

HIKOYADAGI SO‘ZLAR JILOSI

БЛЕСК СЛОВ В ИСТОРИИ

THE GLOSS OF WORDS IN THE STORY

Muydinov Muhammadzoi Zafarjon o‘g‘li

Qo‘qon DPI erkin tadqiqotchisi

muydinovmuhammadzoi@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek adabiyotida hikoyachilik va hikoyada so‘zlardan yetarli darajada foydalanishning o‘ziga xosligi yoritilgan bo‘lib, yillar va asrlar yakuni har qanday sohada sarhisobga imkon beradi. Sarhisob ehtiyoji zaruratga aylanadi. Shu ma’noda XXI asrda yozilgan o‘zbek hikoyalarining estetik qiymati, mavzu kolami, badiiy saviyasi, yutuqlari va boshqa qirralarini tasavvur etish uchun ushbu maqola Shoyim Bo‘tayev hikoyalariga asoslanib tuzildi.

Kalit so‘zlar: Hikoyachilik, falsafa, Shoyim Bo‘tayev, detall, tafakkur, ong, adabiyot, tahlil, tavsir, sharq, uyg‘onish davri, so‘z san’ati.

Аннотация: В данной статье подчеркивается особенность повествования и достаточное использование слов в рассказе в узбекской литературе, а конец лет и столетий позволяет сделать резюме в любой области. Суммарная потребность становится необходимостью. В этом смысле данная статья составлена на основе рассказов Шойима Ботаева, чтобы представить эстетическую ценность, тематику, художественный уровень, достижения и другие аспекты узбекских рассказов, написанных в XXI веке.

Ключевые слова: Сказочничество, философия, Шойим Ботаев, деталь, мышление, сознание, литература, анализ, интерпретация, Восток, эпоха Возрождения, искусство слова

Abstract: In this article, the peculiarity of story-telling and sufficient use of words in the story in Uzbek literature is highlighted, and the end of years and centuries allows a summary in any field. Summary need becomes a necessity. In this sense, this article was compiled based on the stories of Shoyim Botayev in order to imagine the aesthetic value, subject matter, artistic level, achievements and other aspects of Uzbek stories written in the 21st century.

Key words: Storytelling, philosophy, Shoyim Botayev, detail, thinking, consciousness, literature, analysis, interpretation, east, renaissance period, art of words.

KIRISH

Hikoya – ma’lum bir joyda va vaqtda sodir bo‘lgan voqea. Shu qisqa bir janrda insonning butun bir hayoti ham ochib berilishi mumkin yoki hayotining bir qismini ham tasvirlab berish mumkin. Hikoyalarni xayoliy va hayotiy obrazlarda

gavdalantirish mumkin. Shuningdek, ko‘p ijodkorlarimiz roman, qissa, doston va she‘rlar yozish bilan birgalikda hikoya janridan ham yetarlicha foydalanishadi, xoh u xayoliy bo‘lsin, xoh hayotiy. Zamonaviy adabiyotning asosiy epik janrlari hikoya, qissa va romandir. Hikoyaning bir tipi latifa yo masal kabi hayotdan bittagina epizodni aks ettirsa, boshqa bir tipi qahramon hayotidan (ya‘ni uning uchun ahamiyatli) bir yoki bir-biriga uzviy bog‘liq (qisqa vaqt davomida kechgan) ikki-uch voqeani qalamga oladi. Ya‘ni agar birinchi tip hikoya mohiyatan latifa va masalga (unda voqea hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi) yaqinlashsa, ikkinchisida qissaga tomon siljish (unda qahramonning ahamiyati ortadi) kuzatiladi. Tasvirlanayotgan voqealarning yuz berish vaqti qisqaligi bois hikoyaning hajmi kichik, syujeti sodda, personajlari kam bo‘lishini taqozo etadi. Hikoyanavisning mahorati eng avval hikoyabop voqeani tanlay olishi bilan belgilanadi. Zero, har qanday voqea ham hikoyabop emas, ijtimoiy-estetik qimmatga molik voqeani tanlay bilish lozim. Chunki hikoyada xarakterning ayrim chizgilarigina namoyon bo‘ladi, shu bois voqeaning xususan, Shoyim Bo‘tayev ijodida ham ko‘pgina hikoyalar uchraydi, shulardan “Haykal” hikoyasi kabi. Ijodkorning asarlarida milliy va an‘anaviy uslub, realistik tasvir yetakchi ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Asarlarida turli voqealar tasviri o‘z aksini topgan. Shoyim Bo‘tayev yangilik va yangilanishlarga boy, ilmiy dunyosi va o‘z yozish uslubiga ega.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so‘ng barcha jabhalarda bo‘lgani kabi ta‘lim va fan sohasida ham turli xildagi yangilanishlar olib borilmoqda. Davrlar o‘zgaraveradi, unga mos ravishda taraqqiyot o‘zanlari ham. Biroq insoniyat oldidagi asosiy missiya bo‘lgan izlash-topish –qo‘llash amaliyoti hech qachon eskirmaydi. Insonlar savollar ichida yashaydi, biriga javob topilishi bilan keyingisi ko‘ndalang turadi. Albatta, yechimlar o‘z-o‘zidan kelinmaydi, buning uchun izlaniladi, kitoblar varaqlaniladi, ma‘lumotlar to‘planilib tahlil qilinadi. Bu esa butun bashariyat ilm fanga muhtojligini anglatadi. Chunki, savollardan iborat olamda yashab bo‘lmaydi, qayerdadir ularga yechim topilishi shart. Hozirga qadar olimlar nafaqat yer sayyorasi, balki koinotdagi o‘nlab jumboqlarga yechim topdi, sirli hodisalarning sabab va oqibatlarini tahlil qildi, tushuntirdi. Ammo mo‘jizalardan iborat biz yashayotgan hayotda bilmaganlarimiz bilganlarimizdan ko‘p.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Zamonaviy o‘zbek hikoyachiligi mavzu mohiyati ham qariyb yuz yildan ziyod umrini insonning o‘zini anglashini yoritishga bag‘ishlab yashamoqda. Albatta, bu janrning shakllanishi, taraqqiyotida ko‘plab adiblarimizning adabiy-ijodiy tajribalari to‘planib, bugungi qiyofasiga ega bo‘ldi. O‘zbek hikoyachilik maktabini yaratgan namoyondalardan Abdulla Qahhor, G‘afur G‘ulom, Shukur Xolmirzayev, O‘tkir Hoshimov, Normurod Norqobilov, Shoyim Bo‘tayev, Sobir O‘nar, Isajon Sulton kabi yozuvchilarning o‘ziga xos ijodiy tajribalari yosh qalamkashlarga ham mahorat darslari vazifasini o‘taydi. Hikoya prozaning eng kichik janri bo‘lsa-da uning bag‘rida juda ulkan dunyoqarash, hayotiy tajriba yashaydi. Hikoyaga har xil ta‘rifi tavsiflar berilgan. Biroq, har bir hikoyaning ta‘rifi ta‘biri bilan aytganda, o‘zi bilan birga tug‘iladi. Adabiyotshunoslikda tahlil va talqin tushunchalari juda keng qo‘llanilib, ular badiiy asarni tushunish jarayonining bir biriga bog‘liq jihatlaridir.

Badiiy asarni tushunish, uning mazmun-mohiyatini anglash jarayonida tahlil va talqin muhim ahamiyatga ega. Istiqloq davri o‘zbek adabiyoti hikoyachilik janrida kichik odamlar obrazi haqida so‘z yuritish ekanmiz, ularda ko‘p uchraydigan, yozuvchi qalamining o‘ziga xosligini ko‘rsatib turadigan badiiy detallar haqida gapirmasdan o‘tib ketish mumkin emas. Shu o‘rinda Abdulla Qahhorning quyidagi fikrlarini eslab o‘tish joiz : “...adabiy asarning maydonga kelishi uchun avtorning niyatigina kifoya qilmaydi. Avtorning niyati ma’lum bir ideyani tashviq qilmoq ekan, uni tashviq qila bilishi kerak. Tashviq qila bilishning asosiy shartlaridan biri esa o‘quvchini ishonтира bilishdir. Shoyim Bo‘tayeuning XXI asr o‘zbek adabiyotida realistik hikoya ustasi bo‘lib yetishishi, shuhrat qozonishi tasodifiy emas. Shoyim Bo‘tayeuning «yozuvchi janrni emas, janr yozuvchini tanlaydi», degan gap bor. Shoyim Bo‘tayeuning iste’dodi, badiiy tafakkur tarzi har jihatdan hayot hodisalarini hikoya shaklida ko‘rish, idrok etishga moyildir. Go‘yo u hikoya uchun tug‘ilgan edi, roman, qissa, dramalarida ham adibning hikoya shakliga xos fikrlash tarzi shundoq sezilib, ko‘rinib turadi; uning roman, qissa, dramalari o‘ziga xos alohida alohida epizodlar, bir-biri bilan bog‘langan hikoyalar majmuasidan iboratga o‘xshaydi. Shoyim Bo‘tayeuning hikoyalari, birinchi navbatda, samimiyligi, ishonтира kuchi bilan kishini hayratda qoldiradi. Yozuvchi tasviridagi hamma narsa hayot hodisasi, aynan bo‘lib o‘tgan voqea, real hayotning bir bo‘lagi, epizodi bo‘lib gavdalanadi; hikoyalarning ko‘pchiligi real hayotiy asosga ega, ular adibning turmushda o‘zi ko‘rgan, eshitgan hodisalardan, tanish kishilar hayotidan olingan. Muallif yoki personajlar tomonidan aytilgan gaplarga, asardagi detallarga, voqealarga kitobxon ishonmasa, hatto shubha qilsa ham, asarning qiymati qolmaydi”. Ushbu jumlar orqali biz badiiy detalning tasvirda qanchalik muhim rol o‘ynashi haqida bildirilgan fikrga e’tiborni tortishga harakat qildik. Endi savol tug‘iladi : xo‘sh, badiiy detalning o‘zi nima? “Badiiy detal mayda qismchalardan biri, – deb yozadi professor U.Normatov. – Biroq asardagi har qanday qismchalar detal bo‘lavermaydi. Detalni tafsilotdan farq qilmoq kerak. Tafsilotdan farqli o‘laroq, detal qisqa va ixcham bo‘ladi. U tasvir ob’ektini sintezlashtirib ko‘rsatish, u haqida kitobxonada tez va aniq tasavvur hosil qilish xususiyatiga ega”. Detal haqida maxsus kitob yozgan boshqa bir olim, taniqli adabiyotshunos va publisist Saydi Umarov esa unga quyidagicha ta’rif beradi: “Detal, odatda, yirik planda beriladi, u o‘quvchini bir lahza to‘xtatib, uning diqqat e’tiborini muhim bir narsaga jalb etadi, tasvir ob’ektini bo‘rttirib, qabartirib ko‘rsatib, u haqda tez va aniq tasavvur hosil qilish imkonini beradi”. Adabiyotshunoslikda yozuvchi qo‘llagan detallarning u yoki bu vazifalari haqida ko‘p gapiriladi-yu, ularning eng muhim xususiyatlaridan biri asarning emotsional vazifasini ochib berishdagi tomoni haqida kamroq fikr yuritilmoqda.

Shoyim Bo‘tayeuning “Haykal” hikoyasida har bir detallar g‘oyat kuchli hissiy qudratga ega, ular shu zahotining o‘zida kitobxonaga yetib boradi va unga kuchli ta’sir etadi. Ayrim yozuvchilar ba’zan butun boshli xarakter mohiyatini asosan portret tasviri orqali ochadi. Bunda u shunday yo‘l tutadi: dastlab qahramon qiyofasidagi xarakterli belgilarni birma bir aytib o‘tadi, so‘ngra bu tafsilotlarni bitta xarakterli detal orqali umumlashtiradi, yozuvchi keltirgan tavsilotlar xarakter qiyofasining u yoki bu tomoni haqida tasavvur qilish imkonini bersa, umumlashtiruvchi detal xarakter qiyofasini yaxlit va lo‘nda qilib gavdalandiradi,

qo‘yadi, ayni vaqtda shu detal xarakter mohiyatini ham belgilaydi, xarakterni biz xuddi shu detal orqali tasavvur qilamiz.

TAHLILLAR VA NATIJALAR.

Shoyim Bo‘tayeving so‘z jilosidan oqilona va kerakli o‘rinlarda foydalanib, mahorat bilan ishlangani quyidagi satrlarda ko‘rinadi:” Hech kimning yetti uxlab tushiga kirmagan, aslida, ko‘zni sal kattaroq ochib qarasa, har qanday odam ko‘ra oladigan oddiy, ayni paytda g‘aroyib voqea sodir bo‘lgan shaharning bodu havosi, meva-chevasi va boshqa mayda-chuydasi haqida mehmon irimiga bo‘lsada bir og‘iz so‘z aytmagandi. U faqat shahar o‘rtasidan o‘tadigan, bir vaqtlar suvi zilolday bo‘lgan daryoning endilikda chiqindilarga to‘lib-toshib, bo‘tanaga aylanib, tuproq qal‘adagi devday to‘lg‘anib oqib yotishini o‘z hikoyasiga qistirib o‘tgandi. Ba‘zilar, ularning juda-juda inoq yashashlarini aytisharmish; ba‘zilar esa aksincha gap tarqatisharkanki, osmondan tushib, yerdan chiqqandek ko‘payishib ketgan odamlarning bir-birlarini ko‘rishga ko‘zlari, otishga o‘qlari yo‘q, deyisharkan. Harholda, bu yurimsak gaplarning qay biri to‘g‘ri-yu, qay biri bo‘htonligini ajrim qilish bo‘tana suvni ko‘rib turganday oson ish emas ekan.

Yuqorida keltirilgan hikoyaning so‘zlari o‘z o‘rnida va yetarli darajada o‘quvchini o‘ziga tortib olishi ham hikoyaga nisbatan o‘zgacha qiziqish va jilo berib turadi.

Shoyim Bo‘tayeving hikoyalari, birinchi navbatda, samimiyligi, ishontirish kuchi bilan kishini hayratda qoldiradi. Yozuvchi tasviridagi hamma narsa hayot hodisasi, aynan bo‘lib o‘tgan voqea, real hayotning bir bo‘lagi, epizodi bo‘lib gavdalanadi. Hikoyalarning ko‘pchiligi real hayotiy asosga ega, ular adibning turmushda o‘zi ko‘rgan, eshitgan hodisalardan, tanish kishilar hayotidan olingan. Avtor yoki personajlar tomonidan aytilgan gaplarga, asardagi detallarga, voqealarga kitobxon ishonmasa, hatto shubha qilsa ham, asarning qiymati qolmaydi”. Detalni tafsilotdan farq qimoq kerak. Tafsilotdan farqli o‘laroq, detal qisqa va ixcham bo‘ladi. Masalan, “Haykal” hikoyasidagi mana bu qismiga e‘tibor beraylik: “Birov biron narsa xarid qiladimi-qilmaydimi — farqsiz, kirib kelib, besh-olti kishi sig‘adigan xarrakka o‘tirib oladi. Negaki, terifurushning uzoq-uzoq yurtlardan yo‘qlab keladigan oshnolari bisyor. Ular shunchalik ko‘p narsalarni bilishadiki, eshitib yoqangni tutamlaysan, tavba, tarvuzday bir kallaga shuncha gap sig‘adimi-ya, deya hayron qolasan”.

U tasvir ob‘ektini sintezlashtirib ko‘rsatish, u haqida kitobxonda tez va aniq tasavvur hosil qilish xususiyatiga ega”. Detal haqida maxsus kitob yozgan boshqa bir olim, taniqli adabiyotshunos va publisist Saydi Umarov esa unga quyidagicha ta‘rif beradi: “Detal, odatda, yirik planda beriladi, u o‘quvchini bir lahza to‘xtatib, uning diqqat e‘tiborini muhim bir narsaga jalb etadi, tasvir ob‘ektini bo‘rttirib, qabartirib ko‘rsatib, u haqda tez va aniq tasavvur hosil qilish imkonini beradi”. Shoyim Bo‘tayeving “Haykal” hikoyasi ham o‘z ovrnida detallarning o‘ziga xosligi bilan ham ajralib turadi.

Hikoya – ma‘lum bir joyda va vaqtda sodir bo‘lgan voqea. Shu qisqa bir janrda insonning butun bir hayoti ham ochib berilishi mumkin yoki hayotining bir qismini ham tasvirlab berish mumkin. Hikoyalarni xayoliy va hayotiy obrazlarda gavdalandirish mumkin. Shuningdek, ko‘p ijodkorlarimiz roman, qissa, doston va

she'rlar yozish bilan birgalikda hikoya janridan ham yetarlicha foydalanishadi, xoh u xayoliy bo‘lsin, xoh hayoti. Zamonaviy adabiyotning asosiy epik janrlari hikoya, qissa va romandir. Hikoyaning bir tipi latifa yo masal kabi hayotdan bittagina epizodni aks ettirsa, boshqa bir tipi qahramon hayotidan (ya'ni uning uchun ahamiyatli) bir yoki bir-biriga uzviy bog‘liq (qisqa vaqt davomida kechgan) ikki-uch voqeani qalamga oladi. Ya'ni agar birinchi tip hikoya mohiyatan latifa va masalga (unda voqea hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi) yaqinlashsa, ikkinchisida qissaga tomon siljish (unda qahramonning ahamiyati ortadi) kuzatiladi. Tasvirlanayotgan voqealarning yuz berish vaqti qisqaligi bois hikoyaning hajmi kichik, syujeti sodda, personajlari kam bo‘lishini taqozo etadi. Hikoyanavisning mahorati eng avval hikoyabop voqeani tanlay olishi bilan belgilanadi. Zero, har qanday voqea ham hikoyabop emas, ijtimoiy-estetik qimmatga molik voqeani tanlay bilish lozim. Chunki hikoyada xarakterning ayrim chizgilarigina namoyon bo‘ladi, shu bois voqeaning xususan, Ulug‘bek Hamdam ijodida ham ko‘pgina hikoyalar uchraydi. Ta'lim, fan va izlanish chegara bilmaydi, balki eng yangi bilim va ko‘nikmalarni ulashish orqali insoniyatni taraqqiyotga yetaklaydi, bir necha xalqlar taqdiriga daxldor bo‘lgan muammolarga birgalikda yechim topish orqali mamlakatlar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik aloqalari ham mustahkamlanmoqda. Bunda ilm-fan rivoji uchun boshqa mamlakatlarning adabiyotlari va milliy meroslarini o‘rganish va chet el adabiyotlarini o‘zimizga qiyoslab tahlil qilish orqali yuqori natijalarga erishish mumkin. Aynan germenevtika tafakkurni boyitish va ta'limni yuqori samaradorlikka olib chiqishda bizga dasturul amal bo‘lib xizmat qiladi.

XULOSA.

Xulosa qilib aytganda, hikoyachilik bu shunchaki ma'lum sujetga asoslangan voqelik yozish emas, balki aynan shu sujet orqali o‘quvchiga ezgulik ulashish. Bugungi zamonaviy hikoyalar ayni shunaqa faqat voqelik asosida yozilayotgani biroz achinarli. Lekin guruch kurmaksiz bo‘lmaydi deganlaridek, ayni shu kurmaklar zamonaviy hikoyachilikka berilgan aksariyat ta'riflarning sababidir. Hikoya yozuvchi tilga olgan davr va ayni hikoya yozilayotgan davr o‘rtasidagi masofa saqlanishi lozim. Hikoya qahramonlariga to‘xtalsak, biz o‘zbek xalqi qadim-qadimdan bolalarimizga ayni hikoyalar, ertaklar aytib ularga axloqni, odobni o‘rgatib kelganmiz. Abdulla Oripov ta'kidlaganidek, Sharqqa xos donishmandlik bilan yo‘l tutganmiz. Shu boisdan yozilajak hikoyalarimizning bosh qahramonlarida butun millatga ta'sir etajak xususiyatlarni ifodalashimiz kerakligini unutmaylik.

Har bir sohani o‘z taraqqiyot yo‘li bor. Bunda tajribalar, davlatlar, soha harakatini ta'minovchi ishtirokchilar, ularning tili, millat-u mentalitetiga qarab turlicha shakllanadi. Amalda qo‘llanilganlarning barchasi ham omadli bo‘lavermaydi. Ularda samara va samarasizlik koeffitsienti yonma-yon yuradi. Ammo, tahlil, o‘rganish, taqqoslash kabi induktorlar ham borki, ular qilinaajak yangiliklar muvafaqqiyatini 70 foizga bo‘lsa-da kafolatlaydi. Shuning uchun butun dunyo tajribalarini sinchiklab o‘rganish va tahlil qilish va shu asosda yangi bilimlar yaratish doimo oldinda turadi. Tarixiy matnlarni tahlil qilish orqali talabalardagi aynan kreativlikka oid yangidan yangi bilimlarni shakllantirib borish esa bugunning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qolaveradi.

Ta'lim , fan va izlanish olib borish chegara bilmaydi, balki eng yangi bilim va ko'nikmalarni ulashish orqali insoniyatni taraqqiyotga yetaklaydi, bir nechta xalqlar taqdiriga daxldor bo'lgan muammolarga birgalikda yechim topish orqali mamlakatlar orasidagi do'stlik va hamkorlik rishtalarini mustahkamlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shoyim Bo'tayev hikoyalarida xayol va haqiqat (maqola) 977
2. Dilmurod Quronov "Adabiyot nazariyasi asoslari" Toshkent Navoiy universiteti 2018
3. Ziyouz.com "So'z" hikoyasi. 2013
4. Ziyouz.com "Ko'nglimdagi daryo" 2014
5. Ziyouz.com "Bir piyola suv" 2013
6. <http://www.philosophypages.com>
7. <http://www.seop.leeds.ac.uk>